

"TASDIQLAYMAN"

**"O'zbekiston texnologik metallar
kombinati" AJ Boshqaruv raisi**

F.R. Abdullayev

" 1 " 12 2025y.

E'lon qilingan sana: 2025-yil 1-dekabr

Kuchga kirish sanasi: 2025-yil 1-dekabr

**"O'zbekiston texnologik metallar kombinati" AJda
CAHRA (Mojarolar ta'sirida bo'lgan va yuqori
xavfli hududlar)ni aniqlash
TARTIBI**

Chirchiq shahri – 2025-yil

1. Umumiy qoidalar

Ushbu tartib “O‘zbekiston Texnologik Metallar Kombinati” AJ (keyingi o‘rinlarda – Kombinat) tomonidan mineral xom-ashyo va texnologik metallar ta’minot zanjirida **CAHRA – mojarolar ta’sirida bo‘lgan va yuqori xavfli hududlarni** (Conflict-Affected and High-Risk Areas) aniqlash, baholash va hujjatlashtirish mexanizmlarini belgilaydi.

Tartib quyidagi xalqaro hujjat va standartlarga asoslanadi:

- Responsible Minerals Initiative (RMI) talablari;
- OECD Due Diligence Guidance for Responsible Mineral Supply Chains talablari;
- IRMA Standard for Responsible Mining standarti;
- Kombinatning Ta’minot zanjiri siyosati.

2. Tartibning maqsadi

Ushbu tartibning asosiy maqsadi:

- mineral xom-ashyo kelib chiqish hududining **mojaro yoki yuqori xavfli hudud** ekanligini tizimli aniqlash;
- RMI/OECD talablariga muvofiq **xavfga asoslangan Due diligence** (tekshiruv)ni amalga oshirish;
- CAHRA dan kelib tushayotgan xom-ashyo bilan ishlashda qo‘shimcha nazorat va cheklovlarni joriy qilish;
- Kombinatning mas‘uliyatli ta’minot zanjiri ta’minlash.

3. Tartibni qo‘llash doirasi

Mazkur tartib:

- Kombinat tomonidan xarid qilinayotgan barcha **xom-ashyo va materiallar** (ammoniy molibdat, molibden trioksidi, ammoniy paravolframat, etil spirti volframli chiqindilar, azot kislotasi, po‘lat, bronza, molibdenli sanoat mahsulotlari va h.k.)ga;
- tashish/logistika yo‘nalishlari (tranzit davlatlar)ga;
- barcha yetkazib beruvchilar, sub-pudratchilar va logistika hamkorlariga tatbiq etiladi.

4. Asosiy atamalar

- **CAHRA (Conflict-Affected and High-Xatar Areas)** – qo‘shinlar to‘qnashuvi, qurolli mojarolar, siyosiy noaniqlik, odam savdosi, majburiy mehnat, korrupsiya va boshqa yuqori xavflar mavjud bo‘lgan hududlar.
- **Due Diligence** – xatarlarni aniqlash, baholash, kamaytirish va monitoring qilish bo‘yicha tizimli tekshiruv jarayoni.

- **Xavf indikatorlari** – ma’lum hududning CAHRA sifatida tasniflanishiga asos bo’luvchi belgilar (qurolli mojarolar, inson huquqlari buzilishi, siyosiy noaniqlik va h.k.).

5. Mas’ul bo’limlar va vazifalar

- **Komplayens xizmati** – CAHRAni aniqlash, baholash va Due diligence (tekshiruv) jarayonini amalga oshiradi;
- **Xaridlar va import boshqarmasi** – xom-ashyo manbasi, mamlakat va mintaqaviy ma’lumotlarni yig’ish;
- **Yuridik ta’minot bo’limi** – sanksiyalar, eksport-import cheklovlari va huquqiy xavflarni tahlil qilish.

6. CAHRAni aniqlashda foydalaniladigan ma’lumot manbalari

CAHRAni baholashda Komplayens xizmati quyidagi ochiq va ishonchli manbalardan foydalanadi (ro’yxat cheklanmagan):

- BMTning (UN) mojarolar va tinchlikparvarlik bo’yicha hisobotlari;
- Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg’armasi, OECD ma’lumotlari;
- YEXHT, YEI, mintaqaviy tashkilotlar hisobotlari;
- inson huquqlari buyicha xalqaro tashkilotlar (Human Rights Watch, Amnesty International va h.k.) hisobotlari;
- RMI va boshqa sohaviy platformalar tomonidan berilgan CAHRA ko’rsatmalar;
- rasmiy hukumat ma’lumotlari, sanksiyalar ro’yxatlari;
- nufuzli tahliliy markazlar va Conflict Barometer’lar (qurolli mojarolar xaritalari).

7. CAHRAni aniqlash jarayoni (qadamma-qadam)

7.1. 1-qadam: Mamlakat darajasida dastlabki skrining

Xaridlar va import boshqarmasi va Komplayens xizmati:

1. Xom-ashyo kelib chiqishi ko’rsatilgan davlat(lar)ni aniqlaydi (Kelib chiqish sertifikat, bojxona deklaratsiyasi, Shartnoma asosida).
2. Ushbu davlatlar bo’yicha:
 - qurolli mojarolar mavjudligi;
 - terrorchilik, siyosiy noaniqlik, davlat to’ntarishlari xavfi;
 - inson huquqlari tizimli buzilishi;
 - sanksiyalar va cheklovlar bor-yo’qligi haqidagi ma’lumotlarni to’playdi.
3. Mamlakat **3 toifaga** ajratiladi:
 - **Low risk (Past xavf)** – CAHRA belgilari deyarli yo’q;
 - **Medium risk (O’rta xavf)** – ayrim indikatorlar mavjud, lekin tizimli emas;
 - **High risk / CAHRA ehtimoli yuqori** – qurolli mojarolar yoki jiddiy inson huquqlari buzilishi mavjud.

7.2. 2-qadam: Mintaqaviy (regional) tahlil

Agar mamlakat “o‘rta” yoki “yuqori” xavfli deb baholansa:

1. Xom-ashyo qazib olinadigan **viloyat, tuman** darajasida aniqlanadi (yetkazib beruvchi ma’lumotlari, litsenziya, shaxobcha manzili orqali).
2. Shu hudud bo‘yicha:
 - qurolli mojarolar yoki tizimli zo‘ravonlik;
 - qochqinlar oqimi, ichki ko‘chirilgan aholi;
 - mahalliy guruhlar o‘rtasida qarshiliklar;
 - noqonuniy qurolli tuzilmalar faoliyati ma’lumotlari tahlil qilinadi.
3. Agar hududda ushbu omillar yuqori bo‘lsa, u **CAHRA sifatida belgilanishi mumkin.**

7.3. 3-qadam: Xavf indikatorlari bo‘yicha baholash

Komplayens xizmati har bir hududni quyidagi indikatorlar bo‘yicha baholaydi (balli tizimi joriy qilinishi mumkin):

1. **Qurolli mojarolar darajasi** (0–3 ball)
2. **Inson huquqlarining buzilishi** (0–3 ball)
3. **Korrupsiya va qonuniylik muammolari** (0–3 ball)
4. **Terrorchilik va ekstremizm xavfi** (0–3 ball)
5. **Qochqinlar va ichki ko‘chirilgan aholi oqimi** (0–3 ball)
6. **Sanksiyalar va xalqaro cheklovlar mavjudligi** (0–3 ball)

Yig‘ilgan jami ballga qarab toifalanadi, masalan:

- 0–4 ball – Past xavf (CAHRA emas)
- 5–8 ball – O‘rta xavf (qo‘shimcha monitoring talab qilinadi)
- 9 va undan yuqori – **Yuqori xavf, CAHRA sifatida tasniflanadi**

7.4. 4-qadam: CAHRA maqomini rasmiy belgilash

Agar hudud yuqori ball olsa:

- Komplayens xizmati **“CAHRA hududi to‘g‘risida xulosa”** tayyorlaydi (Internal Memo / Risk Assessment Report);
- xulosada: davlat, region, xom-ashyo turi, yetkazib beruvchi, xavf indikatorlari, manbalar ro‘yxati ko‘rsatiladi;
- ushbu hudud Kombinatning **CAHRA reestriga** kiritiladi.

8. CAHRA bo'yicha 10 ta asosiy xavf-xatarlar

1. Qurolli guruhlarini to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish xavfi

Xom ashyo xaridlari mojaroli hududlardagi noqonuniy qurolli guruhlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash ehtimoli.

2. Qurolli guruhlarini bilvosita qo'llab-quvvatlash xavfi

Transport, soliq, bojxona yoki "yo'l haqi" ko'rinishidagi to'lovlar orqali bilvosita moliyaviy yordam ketishi xavfi.

3. Davlat yoki xususiy xavfsizlik kuchlari tomonidan suiiste'mollar

Xavfsizlik kuchlarining noqonuniy to'lov talab qilishi, zo'ravonlik yoki ekspluatatsiya holatlari.

4. Jiddiy inson huquqlari buzilishi xavfi

Tazyiq, qiynoq, kamsitish, ommaviy jinsiy zo'ravonlik, noqonuniy qamash kabi holatlar mavjud bo'lgan hududlardan xom ashyo kelishi.

5. Bolalar mehnati xavfi

Mineral qazib olish yoki qayta ishlash jarayonlarida bolalar mehnatidan foydalanish ehtimoli.

6. Majburiy mehnat xavfi

Konchilik yoki logistika jarayonlarida majburiy yoki qullikka teng mehnat shakllarining qo'llanilishi.

7. Minerallar kelib chiqishini soxtalashtirish xavfi

MSDS, Certificate of Origin, bojxona hujjatlari yoki boshqa hujjatlar qalbakilashtirilgan bo'lishi ehtimoli.

8. Korrupsiya va poraxo'rlik xavfi

Litsenziya olish, transport, bojxona rasmiylashtiruvi yoki xavfsizlik nuqtalarida noqonuniy to'lovlar talab qilinishi xavfi.

9. Pul yuvish va moliyaviy firibgarlik xavfi

Mineral savdosi noqonuniy daromadlarni "legallashtirish" uchun ishlatilishi ehtimoli.

10. Atrof-muhitga katta zarar yetkazish xavfi

Qonunsiz qazib olish, chiqindilarni to'g'ri boshqarmaslik, suv havzalarining ifloslanishi, zaharli moddalar tarqalishi kabi ekologik zararlar mavjud bo'lgan hududlardan xom ashyo kelishi.

9. CAHRA dan keladigan xom-ashyo bo'yicha qo'shimcha talablar

Agar xom-ashyo CAHRA hududidan kelayotgan bo'lsa:

1. Yetkazib beruvchi uchun **kengaytirilgan due diligence (tekshiruv)** talab qilinadi;
2. moliyaviy operatsiyalar va to'lov kanallari alohida tekshiriladi (sanksiyalar, pul yuvish xavfi);
3. hujjatlar to'plami qat'iy to'liqlikda talab qilinadi (kelib chiqish sertifikat, litsenziyalar, eksport ruxsatnomasi va h.k.);
4. kelishuvlar yuqori rahbariyat (Boshqaruv) darajasida maqullanadi;
5. CAHRA hududidan xarid etish **strategik qaror** sifatida qaraladi, ehtiyotkorlik bilan va faqat talablar bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Zarur hollarda Kombinat **CAHRA hududidan xom-ashyo va materiallar xaridini to'xtatishi yoki cheklashi mumkin.**

“O‘zbekiston Texnologik Metallar Kombinati” AJ **asosiy xom-ashyoni (volfram)** sotib olmaydi, aksincha o‘ziga tegishli “Ingichka” konidan oladi.

“Ingichka” konidan kelayotgan volfram CAHRA mezonlari bo'yicha baholanganda, u mahalliy xom-ashyo ekanligini hisobga olib Low risk (Past xavf) degan xulosaga kelish mumkin.

10. Tegishli Milliy va Xalqaro Sanksiyalar Ro'yxati

1. BMT Xavfsizlik Kengashi (UNSC) sanksiyalari

- BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan qo'llanadigan sanksiyalar ro'yxati — “Consolidated List” — shaxslar va tashkilotlarga qarshi aktivlarni muzlatish, sayohat taqiqi va boshqa cheklovlarni o'z ichiga oladi.

- Misol: Sudan/Afrikaning ba'zi mojaroli hududlarida sanksiyalar — UNSC rezolyutsiyasi **1591** Darfur hududiga sanksiyalar kiritgan

- Terrorizmga oid rejimlar: Al-Qa'ida va ISIL (Daesh) ga qarshi UNSCning 1267/1989/2253 qo'mitalari tomonidan aktiv sanksiyalar qo'llaniladi (asset freeze, arms embargo, sayohat taqiqi).

2. Milliy va mintaqaviy sanksiyalar (masalan, Yevropa Ittifoqi)

- **EU Sanctions Map** — Yevropa Ittifoqining sanksiyalar xaritasi, turli davlatlar va mojaroli hududlarga nisbatan qo'llanayotgan sanksiyalarni (aktiv muzlatish, sayohat taqiqi va boshqalar) ko'rsatadi.

- **EU Conflict Minerals Regulation (Reglament (EU) 2017/821)** — bu reglament konlardan va minerallardan mas'uliyatli foydalanishni nazorat qiladi. Ushbu reglament talab qiladi mustaqil tekshiruv va ta'minot zanjiri nazorati, ayniqsa CAHRA hududlaridan olinadigan minerallar uchun.

- **CAHRA ro'yxati (EU ma'nosida)** — RAND Europe tomonidan tayyorlangan va muntazam yangilanadigan “CAHRAs list” mavjud bo'lib, bu ro'yxat mojaroli va yuqori xavfli hududlarni ko'rsatadi.

3. Milliy sanksiyalar (O'zbekiston konteksti)

- O'zbekiston qonunchiligida BMT Xavfsizlik Kengashi sanksiyalari integratsiyalangan. Masalan, O'zbekiston **Rezolyutsiya 1540** ni amalga oshiruvchi me'yoriy-huquqiy baza mavjud.

- Milliy bank va moliya instituti siyosatida sanksiyalar ro'yxatlari: masalan, TBC Bankning ichki siyosatida "Sanksiyalar ro'yxati – BMT, OFAC, EU, UK va boshqa organlar ro'yxatlari" ko'rsatilgan.

-

4. Resurs va minerallar kontekstidagi xatar nazorati

- RMI (Responsible Minerals Initiative) "CAHRAs Procedure Guidance" ni taqdim etadi, bu esa korxonalarga mojaroli hududlardan minerallarni olganda sanksiya va xavf nazoratini qilishda yordam beradi.

- LME (London Metal Exchange) CAHRA bo'yicha yo'riqnoma ("Guidance Note on Conflict-Affected and High-Risk Areas") mavjud, unda mojaroli hududlar va xavf mezonlari, shuningdek sanksiyalarning potentsial ta'siri haqida ma'lumot bor.

11. Baholash natijalarini qayta ko'rib chiqish va yangilash chastotasi

11.1. Maqsad

CAHRA (Mojarolar ta'siridagi va yuqori xavfli hududlar) bo'yicha xatar baholash natijalari, yetkazib beruvchilar profili, huquqiy moslik va sanksiyalar monitoringini belgilangan muddatlarda qayta ko'rib chiqish tartibini belgilash.

11.2. Qamrov

Bu tartib korxonaga xomashyo, material, jihoz va xizmat yetkazib beruvchi barcha subyektlarga, hamda CAHRA hududlari bilan bog'liq barcha operatsiyalarga nisbatan qo'llaniladi.

11.3. Qayta ko'rib chiqish chastotasi

11.3.1. Yillik to'liq qayta baholash

- Har bir yetkazib beruvchi bo'yicha CAHRA xatar baholanishi **yiliga 1 marta majburiy** ravishda yangilanadi.
- Yillik qayta baholash quyidagilarni o'z ichiga oladi:
 - Xavf mezonlarini qayta tahlil qilish
 - Yangilangan hujjatlar (sertifikatlar, kelib chiqish hujjatlari, audit hisobotlari)
 - Sanksiyalar ro'yxati bilan moslikni qayta tekshirish
 - Inson huquqlari, mehnat sharoitlari va noqonuniy moliyalashtirish xavflari

11.3.2. Choraklik (har 3 oyda) monitoring

- Har bir kvartalda CAHRA hududlari bo'yicha geosiyosiy, xavfsizlik va huquqiy vaziyat monitoring qilinadi.
- OECD CAHRA List, EU CAHRA List, UN Sanctions, OFAC, RMI kabi manbalardan ma'lumotlar tekshiriladi.
- Agar xavf oshgani aniqlansa, yil oxirini kutmasdan darhol qayta baholash boshlanadi.

11.3.3. Operativ (real vaqt) qayta ko'rib chiqish

Quyidagi holatlar sodir bo'lsa, baholash **darhol** yangilanadi:

- Yetkazib beruvchi sanksiya ro'yxatiga tushishi

- Mojaro, jangovar harakatlar yoki xavfsizlik xatarlarining keskin kuchayishi
- Majburiy mehnat, bolalar mehnati yoki inson huquqlari buzilishi bo'yicha rasmiy signal paydo bo'lishi
- Noqonuniy moliyalashtirish (terrorizm, qurolli guruhlar) xavfi yuzaga kelishi
- Yetkazib berish zanjiriga yangi subyet kirishi
- Ichki audit yoki tashqi audit tomonidan jiddiy nomuvofiqlik aniqlanishi

11.3.4. Yarim yillik (har 6 oyda) hujjatlarni yangilash

- Xatar matritsasi
- Xavf-xatarlarni kamaytirish rejasi
- Yetkazib beruvchi profil kartalari
- CAHRA bo'yicha monitoring dalolatnomalari.

11.3.5. Yangi yetkazib beruvchi bo'yicha baholash

- Har bir yangi yetkazib beruvchi bilan shartnoma tuzishdan oldin **to'liq CAHRA xatarlarini baholash** o'tkaziladi.
- "O'rta" yoki "yuqori" xavf aniqlansa, qo'shimcha tergov va tekshiruv talab qilinadi.
- "Yuqori xavf" tasdiqlansa, manba bilan ishlash taqiqlanadi yoki xavfni kamaytirish rejasi ishlab chiqilmaguncha to'xtatiladi.

4. Natijalarni tasdiqlash va hujjatlashtirish

- Qayta ko'rib chiqish natijalari Komplayens xizmati tomonidan rasmiy dalolatnoma yoki elektron hisobot shaklida hujjatlashtiriladi.
- Natijalar boshqaruv tomonidan tasdiqlanadi.
- CAHRA reestri kamida **yilda bir marta** qayta ko'rib chiqiladi va yangilanadi.
- Hisobotlar kamida **5 yil** saqlanadi.

12. Yakuniy qoidalar

Tartib "O'zTMK" AJ Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan amal qiladi.

Komplayens xizmati har yili RMI / OECD talablariga muvofiq **Due Diligence (tekshiruv) va CAHRA** bo'yicha hisobot tayyorlaydi;

Zarur hollarda RMI/OECD standartlaridagi o'zgarishlarga muvofiq tuzatishlar kiritiladi.

ESG departamenti direktori



S. Murodov